

**TA'LIM JARAYONIDA MUAMMOLI-MODULLI TEXNOLOGIYALARNI
QO'LLASHDA E'TIBOR BERISH KERAK BO'LGAN JIHATLAR.**

Himmataliyev Do'stnazar Omonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" kafedrası professori,

Xojiyev Xayrulla G'ulomqodirovich

SamVMChBU TF "Zooinjeneriya va ipakchilik" kafedrası assistenti,

Jo'rayeva Saida Lutfulla qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muammoli-modulli ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonidagi o'rnini, boshqa ta'lim texnologiyalaridan afzalliklari, ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'ziga hos jihatlari haqida so'z yuritilgan. Bulardan tashqari maqolada kompetentlik darajasi haqida ham so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Kompetentlik, bilimlarni siqish, mantiqiy model, produksion model, freym modeli, semantik tarmoq modeli.*

Annotation: *This article discusses the role of problematic-modular educational technology in the educational process, its advantages over other educational technologies, its own aspects in the application of educational technology. In addition to these, the article also mentions the level of competence.*

Keywords: *Competence, knowledge compression, logical model, production model, frame model, semantic network model.*

KIRISH

Ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning sifatli bilim olishlari uchun asosiy shartlardan biri bu ularning olingan bilimlarni o'zlarida sintez qila olishlari, har bir ma'lumotni mustaqil tahlil qilishlari hamda mustaqil tarzda bilimlarni o'zlashtira olishidir. Ushbu shartlarni bajarish uchun eng optimal texnologiyalardan biri bu-muammoli-modulli ta'lim texnologiyasidir. Bu texnologiya orqali ta'lim oluvchilar nafaqat sifatli balki ma'lumotlarni tahlil qilish tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Eng asosiysi ta'lim oluvchilar kasbiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

II. Asosiy qism.

Zamonaviy insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichi mutaxassisning kasbiy kompetensiyasiga juda yuqori talablarni qo'ymoqda. Muammoli -modulli o'qitish (MMO) texnologiyasini qo'llash ta'lim oluvchilarning kompetentlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Kompetentlik nima?

Kompetentlik — bu kasbiy faoliyatni amalda yuqori darajada bajara olish qobiliyati hisoblanadi.

Bu qisqa ta'rif quyidagi batafsil mazmunlarni o'z ichiga oladi:

1. Fan bo'yicha chuqur bilim va egallangan ko'nikma.
2. O'quvchining real tayyorgarlik darajasi.
3. Ko'plab yechimlar ichidan eng optimalini tanlay olish.

4. Bilimlarni doimiy yangilab borish va yangi ma'lumotlarga ega bo'lish.

5. Muayyan vaziyatda masalaga mos usulni qo'llay olish.

1-jihat bo'yicha aytiladigan bo'lsa har qanday ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan talaba ana shu 2 ta sifatni mukamal egallashi lozim: mukammal bilim va ko'nikma. Bunday darajaga erishishga ko'plab omillar sabab bo'ladi. Mukammal va zamonaviy o'quv dasturlari, salohiyatli ta'lim beruvchilar, ta'lim muassasasidagi moddiy-texnik ta'minot va albatta sifatli amaliyotlar.

2-jihat bo'yicha. Ta'lim beruvchi o'tadigan dars materialini to'liq o'zlashtirgan bo'lishi, uni ta'lim oluvchilarga etkaza olishi bilan bir qatorda ular tomonidan beradigan savollarga ham javob bera olishi kerak.

3-jihat talabalarga taaluqli bo'lib, muammolarni yechish davrida topilgan yechimlardan mantiqan yondoshgan holda eng maqbulini ajrata olishi lozim.

4-jihat ham ta'lim oluvchi ham ta'lim beruvchiga taaluqli bo'lib, bunda har ikkisi fan bo'yicha yuz berayotgan yangiliklardan habardor bo'lib borishi lozim.

5-jihat ta'lim oluvchilar muayyan vaziyatlarda tanqidiy firlash orqali masalani onson hal qila oladilar

Shunday qilib, insonning muayyan sohada to'liq kompetentligi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

Kompetentlik = bilimning mobilligi + metodning moslashuvchanligi + tanqidiy tafakkur

Bo'lajak mutaxassis jamiyatda talabgir bo'lishi, o'zini erkin his qilishi uchun uni o'qitish jarayonida birgina uslub emas, balki vaziyatga qarab bir nechta pedagogik texnologiyalar qo'llanishi lozim.

MMO' texnologiyasi uch asosiy bo'g'inni o'z ichiga oladi:

1. O'quv materialini siqish (kompressiya).

2. Modul tamoyili.

3. Muammolilik.

2. MMO' ning mohiyati va tarkibiy qismlari

MMO' ning asosi fundamental tizimlar nazariyasi hamda inson miyasi po'stlog'ining modulli tuzilishiga tayanadi. Bu yondashuvga ko'ra, inson uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolar alohida qismlarga - kvantlarga ajratilgan holda hal qilinadi.

Muammoli-modulli o'qitish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Texnologiyaning maqsadli yo'nalishi va yetakchi tamoyillari.

2. Muammoli modullar mazmunini loyihalash.

3. O'qitish metodlari, shakllari va vositalarining uyg'unlashuvi.

4. O'quv modullari va didaktik materiallarni yaratish.

5. Nazorat va baholash tizimi.

TPMOning moslashuvchanligi — bu texnologiyaning o'zgarib borayotgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga tez moslashish qobiliyati.

Moslashuvchanlik quyidagi uch komponentdan iborat:

1. Strukturaviy moslashuvchanlik-Texnologiya alohida elementlarga bo'linishi orqali ta'minlanadi.

2. Mazmuniy moslashuvchanlik-bunda o'quv materialini differensiallash va integratsiyalash imkoniyati bilan belgilanadi.

3. Texnologik moslashuvchanlik-turli metodlardan foydalanish va o'quvchilar faoliyatining individuallashtirilishiga xizmat qiladi.

“Bilimlarni siqish” jarayoni alohida qiziqish uyg'otadi

So'nggi yillarda informatsion texnologiyalarning yangi sohasi — bilimlar injiniringi shakllandi. U bilimlarni qayta ishlash, tasvirlash va ulardan foydalanish muammolarini o'rganadi.

Axborot ko'pligi davrida bilimlarning ixchamligi va tez qo'llanishi juda muhim.

Bilimlarni ixcham ko'rinishda tasvirlashning quyidagi modellari mavjud:

1. Mantiqiy model
2. Produksion (qoidalar) modeli
3. Freym modeli
4. Semantik tarmoq modeli

1.Mantiqiy model — bu hodisa, jarayon yoki tizimning asosiy elementlari va ularning o'zaro bog'lanishini mantiqiy fikrlash asosida soddalashtirib ifodalovchi modeldir. Mantiqiy model reallikni soddalashtirib ko'rsatadi, muhim jihatlarni ajratib beradi, “Agar — unda” (if-then) tamoyiliga asoslanadi, tahlil va xulosa chiqarishga yordam beradi.

2.Produksion (qoidalar) modeli — tizimdagi bilimlar qoidalar (productions) majmuasi sifatida saqlanadi va muayyan shart bajarilganda natija (harakat yoki xulosa) yuzaga keladi.

3.Freym modeli-bu qisqa so'zlar orqali ma'lumotlar olish va maqsadga yo'naltirish tushiniladi.

Masalan turli lug'atlar, vikipediya shu modelga asoslanib tayyorlanadi.

4.Semantik tarmoq modeli — bu bilimlarni tushunchalar (obyektlar) va ularning o'zaro bog'lanishlari orqali ifodalovchi mantiqiy-bilim modelidir.

III.Hulosa

Maqolada muammoli-modulli texnologiyasining o'ziga hos jihatlari hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish haqida so'z yuritildi.

Ta'lim tashkilotida ta'lim oluvchilarga sifatli bilim berish ushun ularni mustaqil ishlashga, olinadigan ma'lumotlarni o'zida sintez qila olishga undash lozim.

Qanchalik ularda mustaqil ishlash va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlansa, ular shunchalik kasbiy mahoratga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.N.Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent. TDPU 2006 yil.

2. S.A.Madiyarova va boshqalar. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent. Iqtisod-moliya 2009 yil.

3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashyev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2013 yil. O'quv qo'llanma.

4. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogik nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T. “Sano-standart nashriyoti” 2017 yil.

5. D.O.Himmataliyev, X.G'.Xojiyev. Muammoli ta'lim texnologiyasining mohiyati. Oriental renaissance:Innovative educational, natural and social sciences VOLUM 2022:1402-1404